
“OBOD VA FAYZLI MAHALLA — YURT KO‘RKI”

Toshloq tumani obodonlashtirish bo‘limi xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar taxsinga loyiq, albatta. Ular nafaqat tumanning markaziy ko‘chalarini turli xil chiqindilardan tozalashadi, balki ko‘chalarga gullar ekib, go‘zallik ulashishadi.

Bugungi hasharda ham obodonlashtirish bo‘limi xodimlari faol qatnashib, obodonlashtirish, tozalash ishlarini olib bormoqda. Tuman markazidagi yo‘l chetlari oqlanib, korxonalar va tashkilotlar oldiga turli xildagi gullar hamda manzarali ko‘chatlar ekilmoqda. Shuningdek, tuman hokimligi xodimlari ham hasharda ishtirok etib, turli xildagi gul ko‘chatlarini ekdilar.

2024-03-16 14:55:24